

HISTORICAL, SOCIAL AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF TRAINING OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS SPECIALISTS IN UZBEKISTAN

Turdiyev Radik Erkinovich

Samarkand State University named after Sh. Rashidov

2nd year Master of Sports and Arts

Proff. Eshnazarov J.E.

Supervisor

ANNOTATION

This article discusses the historical stages of training sports professionals, the views of our ancestors, who contributed to them, the social and pedagogical significance, the gradual development.

Keywords: historical, social, pedagogical processes, their requirements, past and present pedagogue.

INTRODUCTON

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixiy bosqichlari jismoniy madaniyat va sport har doim jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelgan. XIII-XIV asrlarda Movarounnaxrda markazlashgan davlat tuzish bilan san'at ilm fan taraqqiy etib bordi. Bu jarayonda olim va ulamolar Samarqandga yig'lishgan. 1370-yillarda A. Temur markazlashgan davlatni tashkillashtirish jarayonida harbiy xizmatchilarni kuchli jasur bo'lish uchun jismoniy mashqlarga e'tibor qaratgan.

Ulug' shoir va mutaffakir Alisher Navoiy o'z asarlarida jismoniy tarbiya va sport g'oyalarini oldinga surib, o'z qahramonlarini jismonan kuchli, baquvvat va chiroyli inson sifatida ta'riflagan. 1917-yillarda yangi tizim maktablari tashkil qilingandan so'ng, diniy bilimlar uyg'unlashtirilib olib borilgan.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport to'garaklari talabalarni insonparvarlik ruhida o'z mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashda umumiy fanlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. U har bir talabaning o'z mutaxassisligiga jismonan tayyorlashida shaxs sifatida shakllanishida muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga u sog'liqni mustahkamlash omili bo'lib talabani kelajakda yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlari dasturiga fan sifatida 1928-yildan kiritilgan. Ungacha mutaxassislar qisqa kurslarda tayyorlangan.

1921 yilda Farg'ona va Toshkent shaharlarida jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashni ko'zda tutib 3 oylik kurslar ochildi. Shu yili bi kurslarni 60 kishi tugatdi. 1926 yilda ham jismoniy tarbiya yo'riqchilarini tayyorlaydigan 3 oylik kurslar ochildi. O'sha yilning o'zida ularni 30 kishi bitirib chiqdi.

1926 yilning noyabr oyida o'rta Osiyo xalq xo'jaligini tezda yuksaltirish va bu o'lkada mutaxassislar kamligini hisobga olib mamlakatning sharqida birinchi oliy texnika o'quv yurti

o'рта Osiyo paxtachilik irrigatsiya- politexnika oliygohi hozirda Toshkent davlat texnika universiteti tashkil etildi.

Pedagoglarni va mutaxassislarni tayyorlashda turli Oliygothlar va O'quv yurtlari tashkil qilindi. Jumladan:

1933-yilda Jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash uchun Samarqand shahrida bir yillik kurs ochildi.

1935-yilda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Yo'.Oxunboboyevning farmoyishi bilan birinchi jismoniy tarbiya texnikumi ochildi.

1949-yilda Toshkent Davlat muallimlar tayyorlash Instituti qoshida birinchi marta Oliy malakali Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash bo'limi ochildi.

1954-yilda Farg'ona, Nukus, Andijon Davlat muallimlar oliygothida Jismoniy tarbiya fakulteti ochildi.

1955-yilda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy Tarbiya texnikumi asosida O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya Instituti ochildi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda 56 Oliy o'quv yurti shu jumladan Universitet 600 dan ziyod o'рта maxsus kasb hunar kollejlari bo'lib, ularning hammasida jismoniy tarbiya kafedراسi ishlab turganini qayd etish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport talabalar kun tartibida muhim o'rin olgan ko'pgina o'quv yurtlarida va yotoqxonalarda sport shu'balari ishlab turibdi. Shu'balarni yuqori malakali o'qituvchi va sport ustozlari boshqarib borishadi. Jismoniy madaniyat va sport sohasida Respublikamizning bir qancha olimlari va ilmiy tadqiqotchilar, asperantlar izlanishlar olib bormoqdalar. Hozirda davlatlar o'rtasidagi o'zaro musobaqa kuch qudratini namoyon etish bellashuvi asosan ikki yo'nalishda sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat ya'ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy ta'bir bilan aytganda xalqning jismoniy intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish. Bu borada tegishli zahiralarini shakllantirish XXI arsdan taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda.

Bu xaqiqatni chuqur va har tamonlama idrok etish mamlakatimiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab yurtimizda sog'lom va barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish bu borada o'ziga xos milliy tizim yaratish chora tadbirlarini ko'rdi.

Ana shu maqsadda istiqloqlning dastlabki yillaridayoq "Sog'lom avlod uchun" xalqaro hayriya jamg'armasi tashkil etildi, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola, sog'lom nasl uchun kurash yo'lida salmoqli qadam qo'yildi. Birinchi davlat mukofotining "Sog'lom avlod uchun" ordeni deb atalgani bu boradagi intilishlar qanchalar qat'iy va uzoq maqsadlarini ko'zlaganidan dalolat edi.

Muhimi shundaki, davlatimiz rahbari mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat bolalar va o'smirlarni balki butun xalqni ommaviy sport harakatiga jalb qila oladigan o'ziga xos samarali tizimni shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishlarining uzviy va ajralmas qismi deb bildi. Bu sohadagi tadbirlarni o'zaro uyg'un va mushtarak tarzda tashkil etish taklifini berdi. Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yaxshi natijalar beriyatgani nafaqat o'zimizning balki horijiy mutahassislar

tamonidan tan olinib etirof etilayotganligi mazkur sohadagi ishlarning naqadar puhta o'ylab uzoqni ko'zlab amalga oshirganini ko'rsatadi. Takidlash joizki bunday oliyjanob ishlar o'tish davrining nihoyatda murakkab bosqichida amalga oshirila boshlagani bilan yanada ahamiyatlidir. Ana shu ezgu ishlar hozirgi kunda ham izchillik va qatiyat bilan davom etirilib xalqimiz avvalo yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarixini targ'ib etishga mustahkam zamin bo'lmoqda. Mamlakatimizda jismoniy intellektual resurslarining ro'yobga chiqarishni taminlamoqda. Zero jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bir avlod vakillarining maydonga chiqqani ularning jahon miqyosida qo'lga kiritgan yutuqlari, hammani g'ururlantiradi. Jumladan boks bo'yicha olimpiyada chempioni Muhammad Qodir Abdullayev, jahon chempioni Artur Grigoryan, Tennisimiz malikasi Iroda To'laganova Shaxmotimiz va futbolimiz yulduzlari Rustam Qosimjonov hamda Mirjalol Qosimov kabi ko'p sport sohasida erishgan ulkan yutuqlari mamlakatimizda amalga oshiralayotgan ijobiy islohatlar – yaratilgan shart sharoitlar mevasidir. Yoshlarimizning sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetgan va O'zbekiston sharafini dunyo miqyosida munosib himoya qilayotgani mamlakatimiz nufuzining tobora ortib borayotganidan darak beradi. Mana shunday sport yulduzlari timsolida yurtimizning yorug' kelajagiga ishonch mustahkamlashib boradi. Bugungi kunda respublikamizda sportning ayniqsa yoshlar orasida ommaviylashib borishini taminlovchi birlamchi omil munosib shart-sharoitlar yaratildi. Zamonaviy sport inshootlari, o'yingoh va majmuolarining barpo etilishi o'quvchi yoshlarning ommaviy sport musobaqalari bilan to'la qamrab oladigan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" o'yinlaridan iborat uch bosqichli milliy tizimning shakllanishiga asos bo'ldi. Natijada sport jismoniy tarbiya yoshlar dunyo qarashiga ijobiy ta'sir etib, jismoniy intellektual resurslar rivojini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlamoqda. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlashni tashkil qilinishi va rivojlanishi.

Jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlashning tarixiy va ijtimoiy pedagogik ahamiyati, mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va milliy mustaqillikni qo'lga kiritib buyuk davlat qurish uchun zo'r ishtiyoq bilan qadam tashlayotgan jamiyat hayotining hamma sohalarida islohatlar o'tkazish hamda tub burilishlar sodir bo'layotgan tarixiy bir davrda yashayapmiz. Ma'lumki, jamiyat hayoti ijtimoiy-iqtisodiy, shart sharoitlar o'zgarib borishi bilan maktabga ta'lim muassasalariga umuman mutaxassislar tayyorlash sohasiga yangicha talablar qo'shila boshladi. Jamiyatimizni yangilash va iqtisodiyotni yangicha tashkil etish respublikamizni qudratli va gullab yashnagan o'lkaga aylantirish borasida oldimizdagi ulug'vor vazifalarni jisman va ma'nan sog'lom o'qimishli avlodgina amalga oshira olishini unutmasligimiz kerak deb ta'kidlaydi birinchi Prezident I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashning o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida.

Darxaqiqat Respublikamiz xalq xo'jaligining barcha sohaları bo'yicha yetuk mutaxassis xodimlarni tayyorlash mustaqilligimizni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

Prezidentimiz uqtirib o'tganlaridek "Jismonan va ma'nan sog'lom o'qimishli avlod" ni tarbiyalab yetishtirish masalasi umuman mamlakatimizning kelajak taqdiri bilan bog'liq jiddiy muammo ekanligi kun sayin oydinlashib bormoqda. Bu esa respublikamizda XXI asr pedagoglar, murabbiylar, xalq ta'limi xodimlari qisqasi yosh avlodni kamolga yetkazish uchun xizmat qiladigan barcha kishilar ota-onalar zimmasiga katta ma'suliyat va vazifalar yuklaydi. Jahon madaniyati fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichi insoniy tafakko'ring yuksak

parvozi fikr inqilobi bilan chambarchas bog'lanib ketgan "Sog' tanda sog'lom aql" – deydi dono xalqimiz. Aqliy kamolot sari intilgan jamiyat jismoniy kamolot orqali o'z maqsadiga erishadi. Boshqacha aytganda, kishining jismoniy va ma'naviy, ruhiy asoslari uyg'un ravishda rivojlanadi, inson barkamollik yuzaga keladi. Bularning barchasi jamiyat hayotida umumxalq madaniyatining uzviy qismi bo'lgan jismoniy madaniyatining naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Binobarin xar bir millatning madaniylik darajasi uning sog'lomligi jismoniy kamolotidarajasi bilan ham belgilanadi. Ma'naviy, moddiy va jismoniy madaniyati bir-biriga mutanosib ravishda taraqqiy topgan xalqlarni, millatlarniyuksak madaniyat sohiblari deb atash mumkin. Ma'lumki jismoniy madaniyatni ko'tarish muayyan moddiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, pedagogik, tabiiy shart-sharoitlarning mavjudligi bilan bog'liq. Bizning tariximizdan shu narsa ayon bo'ldiki, mustamlakachilik asoratida qolgan xalqning umuman milliy madaniyatiga, qadriyatlariga putr yetgani singari milliy jismoniy madaniyatning taraqqiyotiga ham jiddiy ziyon keltirar ekan. Bunga xalqning milliy an'alarini yo'qotish ma'naviy sarchashmalaridan begona qilish orqali erishish paydo bo'lishar ekanlar.

Xususan milliy madaniyatimizning, qadriyatlarimizning bir bo'lagi bo'lgan xalq millat o'yinlarini sport turlarini olaylik. Ma'lumki xalq milliy o'yinlari va sport turlari avvalo maxalliy sharoitdan, tabiat va iqlim xususiyatlaridan kelib chiqqan va unga moslashgan. Shu bilan birga turli yosh va jinsdagi kishilarga muvofiq keladigan xilma-xil ko'rinishlarga ega. Ular shug'ullanuvchilarga tutli tuman jismoniy va ma'naviy sifatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Xalq milliy o'yinlari turlari o'z ishqibozlariga, muxlislariga, hakamlarga ega bo'lib tomoshabinlarda doimo zavq va faxr uyg'otib kelgan. Masalan, ko'pkari chopadigan moxir chavandozlar haqida uloqchi, poygachi otlar haqida kurash yerga o'tgan polvonlar haqida aytilgan hikoyalar xalq orasida sayyor rivoyatlarga aylanib ketgan. Mexmonxonalarda to'y xashamlarda, yig'inlarda ularning nomlari va maxoratlari qayta-qayta tilga olingan. Bularning hammasi yosh avlodni tarbiyalashga, ularning ham jismonan ham tarixan baquvvat, tetik, shijoatkor, mard, halol bo'lib o'sishiga zamin tayyorlagan ya'ni uning qalbida xavas uyg'otish uchun xizmat qilgan. Bilamizki bolaning yuragida ungan xavas kurtagi obrazli qilib aytganda u bilan birga voyaga yetib boradi va bir kun kelib ajoyib samaralar berishi tayin. Bu esa kishini komillik sari boshlaydigan davrlar sinovidan o'tgan vositalaridan biridir. Xalqimiz boshidan kechirgan mustamlakachilik davrida ham iloji boricha milliy qadriyatlarimizdan yiroqlashtirishga, hayotiy, ma'naviy ildizlarimizdan maxrum etishga xarakat qilib kelingan. Xususan yigitlarni abjir, kuchli, chaqqon, mard eng muhimi mag'rur qilib tarbiyalaydigan milliy sport turlaridan biri ko'pkurashni turli yo'llar bilan ta'qib ostiga olingani xatto sho'ro zaminida asl zotli uloqchi otlarning go'shtga tortishib qirib yuborganligi puxta rejalashtirilib o'tkazib kelingantadbirlardan boshqa narsa emas. Chunki buning tagida ikki boshli g'addol niyat ko'zga tashlanadi. Birinchisi yoshlarni ota-bobolari asrlar mobaynida shug'ullanib kelgan jismoniy rivojlanish vositalarining biridan maxrum qilish bo'lsa, ikkinchisi ularning g'ururini so'ndirish, o'z oti, o'z yurti uning go'zal an'alarini bilan faxrlanish xissini yo'qotish edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.E.Eshnazarov “Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish”. Darslik 2007
2. J.E.Eshnazarov “Jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari”. Konferensiya Toshkent 2008-yil
3. Axmatov M. “Respublika uzluksiz sport musobaqalar tizimlarining qatnashchilari sog’ligining holatini monitoringi” ma’lumotlar bazasi O’zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi 5(43), 2003 P-183
4. Salomov R.S “Sport mashg’ulotlarning nazariy asoslari” o’quv qo’llanma 2005-yil O’zDJTI
5. Ашмарин Б.А “Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании” М. Физкультура и спорт 1978 г. -224 стр.
6. Abdumalikov R. A , Alibekov SH., Norqulov SH., “Xalq milliy o’yinlari mazmunida ma’naviyat asoslari” Toshkent 1995 yil -9 bet
7. Maxkamjonov K. M Nasriddinov F. N “Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish” Toshkent 1995 yil 74 bet
8. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida” gi qonuni.
9. Ziyonet.uz
10. Arxiv.uz
11. LexUZ sharhi